

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

Bpshlangich talim metodikasi fakulteti talabasi
Sh. Mamajonovaning

“Tarbiyaviy ishlarning shaxs kamolotiga ta’siri”

mavzusida yozgan

R E F E R A T

Ilmiy rahbar: p.f.n., dotsent M.Artiqova

Andijon – 2015

MAVZU: TARBIYAVIY ISHLARNING SHAXS KAMOLOTIGA TA'SIRI

KIRISH

1. Tarbiyaviy ishlarning mazmuni va maqsadlarini aniqlash, ularning maqsadlarini aniqlash, uning maqsadlarini aniqlash, uning maqsadlarini aniqlash
2. Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy sharoitdagi ustuvor jihatlari
3. Tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlashda onglii intizomning ustuvor omilekanligi
4. Tarbiyaviy ishlarning ijtimoiy tarbiyaning muhimligi

XULOSALAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

KIRISH

Bugun biz bir tarixiy davrda halqimiz o'z oldiga ezgu va ulug' maqsadlar kuyib, tinch-osoyishta hayot kechirayotgan, avvalo o'z kuch va imkoniyatlariga tayanib, demokratik davlat va fukarolik jamiyati kurish yo'lida ulkan natijalarni qo'lga kiritayotgan bir zamonda yashamokdamiz.

Biz o'z taqdirimizni o'z qo'limizga olib, azaliy qadryatlarimizga suyanib, shu bilan birga, taraqqiy topgan davlatlar tajribasini hisobga olgan holda mana shunday olijanob intilishlar bilan yashayotganimiz, halqimiz asrlar davomida orziqib kutgan ozod, erkin va farovon hayotni barpo etayotganimiz, bu yo'lda erishayotgan yutuqlarimizni halqaro jamiyatni tan olgani - bunday imkoniyatlarning barchasi aynan mustaqillik berganini bugun hammamiz chuqur anglaymiz. Ana shu haqiqatni halqimiz har tomonlama to'g'ri tushunib, tanlagan tarakkiy yo'limizni ongli ravishda qabul qilgani va qo'llab-quvvatlagani oldimizga kuygan maqsadlarga erishishning asosiy manbai va garovi ekanini hayotning o'z tasdiklamokda.

Ayni paytda istiqlol yillarida yurtimizda milliy ma'naviyatimizni tiklash, uni zamon talablari asosida rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ulkan ishlar bu borada oldimizda to'rgan maqsad va vazifalar haqida atroflicha fikr yuritiladi. Bugungi murakkab globollashuv davrida ma'naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, halqimiz ma'naviyatini asrash va yuksaltirish, ayniqsa yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkuralar ta'sirida saqlash va himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

1. Tarbiyaviy ishlar, uning maqsadivabarkamolshaxskamolotidagizaruriyati

Barkamol shaxsni tarbiyalash gumanitar ta'lim va tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlar ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarning mustahkalanishida, ularning ijtimoiy faolligining o'sishi va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat tomonidan to'plangan behisob madaniy boyliklardan bahramand bo'lish, ularni o'zlashtirish yoshlarda gumanistik dunyoqarashning vatanparvarlik, vijdon, e'tiqod, or-nomus, sha'n, mardlik, jasorat, oliyhimmatlik, fidoiylilik, insonparvarlik kabi qadriyatlarining shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda bunday sifat va fazilatlarni tarbiyalash maorif va oliy ta'lim tizimida ustivor ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Zero, Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, siyosatda, iqtisodda va ma'naviyat sohasidagi islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq. Barcha talaba-ta'lim oluvchilarni Respublikamizning tarixiy shaharlariga, diqqatga sazovor joylariga muntazam ravishda sayohatlar uyushtirib turish, muzeylarga, ko'rgazmalarga, teatrlarga, konsertlarga maxsus jadval tuzib ommaviy ravishda olib borish, ta'lim muassasalarida ularning mehnat va urush faxriylari bilan, zamonamiz qahramonlari bilan, san'atkorlar, shoir-yozuvchilar, shifokorlar, huquq-tartibot idoralarining mas'ul xodimlari, mahalla oqsoqollari, ota-onalar bilan davra suhbatlarini, uchrashuvlar tashkil etish-bular hammasi yoshlarda milliy iftixor, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash bilan birga ularning dunyoqarashini yanada kengaytirishga, boyitishga umuminsoniy saviyasini oshirishga yordam beradi. O'quv yurtlarida talabalarning qiziqishlari bo'yicha tashkil etilgan turli xil to'garaklar, klublar, sport seksiyalari, kasb-hunar sexlari ham talaba-yoshlarning uyg'un rivoji uchun yaratilayotgan sharoitlardandir.

Tarbiyaviy maqsad – aniq o'lchamli ishlarga oid vazifalarni belgilab beradi. Har bir ishda asosiy g'oya, yo'nalish (aqliy, jismoniy, mehnat tarbiyasi va boshqalar) ajralib turadi. Tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida pedagogning vazifasi professor-o'qituvchilarning murabbiylik faoliyatini asosiy maqsadga

yoʻnaltirish, tarbiyalanuvchilarning muayyan taʼsir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashxis qoʻyishdan iboratdir.

Barkamol shaxs tarbiyasi – shaxsni maʼnaviy-ahloqiy shakllantirish, Vatan mustaqilligi mustahkamlash, jamiyat va davlat manfaatlariga xizmat qiluvchi, intellektual salohiyatli, erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga qaratilgan tarbiyaviy jarayonlar majmuasidir. Maʼnaviy-ahloqiy tarbiyaning asosiy maqsadi – Davlat va jamiyatga xizmat qiluvchi, Vatanga fidoiy, ahloqiy barkamol intellektual kadrlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir.

Tarbiyaviy jarayonni taʼlim muassasasida shakllantirishda muhitni qayta shakllantirish va rivojlantirishni, «oila-taʼlim muassasasi-mahalla» hamda «tarbiya-muhit» uzviyligining mazmun va mohiyatan birligini mustahkam asoslarda taʼminlash kerak. Buning uchun milliy maʼnaviyat tushunchasi, shaxs maʼnaviyati va umuminsoniy qadriyatlar haqida batafsil maʼlumotga ega boʻlmogʻimiz zarur.

1. Milliy maʼnaviyat tushunchasi. “Millat” soʻzi tub mohiyat, oʻzak, negiz degan maʼnolarni bildiradi. Milliy maʼnaviyat esa “Millat” tushunchasi bilan bogʻliq. “Millat” soʻzi arab tilida uch maʼnoni bildiradi: 1) din, mazhab: 2) ummat: 3) xalq, qavm. Millat soʻzi Kurʼoni Karimda ham qoʻllanilgan. Qurʼonda har bir millat vakili oʻz milliy qadriyatlarini rivojlantirishi savobli ish, lekin oʻz millatidan, qavmidan chiqib, boshqa millatga oʻtib olishi esa katta bir gunoh deb taʼrif berilgan.

Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar millatlar oʻrtasidagi maʼnaviy munosabat va aloqalar rivojlanib boraveradi. Bu borada maʼnaviyatni besh guruhga boʻlib oʻrganish mumkin:

- 1) maʼnaviy qadriyatlar;
- 2) milliy maʼnaviyat;
- 3) shaxs maʼnaviyati;
- 4) mintaqaviy maʼnaviyat;
- 5) umuminsoniy maʼnaviyat.

2. Milliylik va umuminsoniylik. Umuminsoniy maʼnaviyat oʻz ijobiy

ahamiyatini hech qachon yo‘qotmagan. Oltin zanglamas, quyosh qoraymas deganlaridek, umuminsoniy ma’naviyat har doim qadimiy va navqiron bo‘lib qolaveradi. Ular umumbashariy ma’naviyat deb ham yuritiladi.

2. Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy sharoitdagi ustuvor jihatlari

Ma’lumki, ota-bobolarimiz azal-azaldan inson tarbiyasi masalalariga jiddiy e’tibor berib kelishgan va bu an’ana avloddan-avlodga ko‘chib, takomillashib, yangicha usullar evaziga boyib borgan. Zotan, inson ma’naviyati tarbiyaga bog‘liq.

Tarbiyasiz ma’naviyat poydevorsiz binoga uxshab omonatlik kasb etadiki, bu holni sharhlab, izohlab utirishning xojati yo‘q. Shu boisdan-da, ta’lim-tarbiya jarayoniga barcha davlatda kuchli ehtiyoj sezilgan. Ma’naviy barkamol, komil inson tarbiyasi hozirgi kunning eng muhim, dolzarb masalalaridan biridir.

Yurtboshimiz Islom Karimov "Men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir",- degan fikrini ko‘p mushoxada qilaman.

Buyuk ma’rifatparvarning bu suzlari asrimiz boshida millatimiz uchun kanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bulsa, hozirgi kunda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham kura muhim va dolzarbdur", - deya tarbiya jarayoniga yuksak baxo berishi fikrimiz dalilidir.

Zero, bu masalani hal etishda maktab, litsey, kasb-hunar kollejlarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning roli bekiyosdir.

Respublikamiz Oliy ta’lim muassasalarini tugatib, yosh mutaxassis sifatida ilk bor ta’lim muassasalarida faoliyat kursatayotgan har bir o‘qituvchi o‘quvchilar bilan sinf yoki guruh rahbari sifatida dars va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar jarayonida quyilarga jiddiy e’tibor karatmogi zarur:

1. Talabalarning maktab shunoslik va tarbiya nazariyasini o‘rganish
2. Ta’lim muassasalarida o‘qitilgan bilimlarni mustahkamlash va ularga boshqarilgan bilimlarni o‘qitilgan bilimlar bilan o‘zlashtirish va darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish.

3. Talabalarda maktab, akademik litsey hamda kollejlarda tarbiyaviy ishlar tizimini har tomonlama o'rganish, darsdan tashqari turli ko'rinishdagi tarbiyaviy tadbirlarni kuzatish va tahlil qilish, o'quv-malakalarini takomillashtirish.

4. Talabalarda o'quvchilarning yosh va shaxsiy xususiyatlarini tibbiyorga o'lgan holda tarbiyaviy vazifalarini aniqlash, ularni hal qilish usullarini to'g'ri tanlash va kullay bilish o'quv-malakalarini tarkib toptirish.

5. Talabalarda darsdan tashqari tarbiyaviy ish turlarini maqsadga muvofik, rejalashtirish o'quv-malakalarini shakllantirish.

6. Talabalar sinf rahbariyordamchisi sifatida, sinf rahbari vazifalarini bajarishga, o'quvchilar bilan alohida alohida va ommaviy tarzda darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarini olib borishga urgatish.

7. Talabalar tarbiyaviy ishlar sohasidagi ilg'or pedagogik tajribani o'rganishga jalbetish va ularni pedagogik faoliyatga ijodiy, ilmiy va amaliyondashish munosabatlari, ijtimoiy pedagogik faollikni tarkib toptirish.

8. Talabalarda o'quvchilarga nisbatan tarbiyachilik kasbi bo'lgan muhabbatni mustahkamlash, milliy ahamiyatli tarbiyaviy muammolarini haletishga imkon beradigan pedagogik qobiliyatni takomillashtirish, o'quvchilarning shaxsiyatining tarbiyasiga bo'lgan intilishlarini kuchaytirish.

Maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari tarbiyaviy ishlar tizimini har tomonlama o'rganish va o'quvchilar bilan darsdan tashqari, tarbiyaviy ishlar olib borish IV kurs talabalari pedagogik amaliyotining eng muhim tarkibiy qismi hisoblanib, u bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachining xaqiqiy kasb faoliyatiga juda yaqin va uxshash sharoitda utadi. Uning asosiy maqsadi talabalarni sinf rahbari vazifalarini bajarishga tayyorlashdan iboratdir.

Ijtimoiy jamiyat hayotining tartibli kechishini ta'minlash maqsadida axloqiy hamda xuquqiy me'yorlar qabul qilingan. Ijtimoiy-axloqiy me'yorlar omma tomonidan yaratilgan bo'lib, unda muayyan millat (elat, kabilalar yoki etnik

guruhlar) kishilarning turmush tarzi, hayotiy yondashuvlari, uy-fikrlari, dunyoqarashlarini namoyon etuvchi talablar aks etadi. Ijtimoiy-axloqiy me'yorlar omma fikri asosida tartibga solinadi.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning eng asosiy va hal kiluvchi omillaridan biri sinf tarbiyaviy soatlari bo'lib, uni, tashkil etish pedagogikaning quyi yo'nalishlari asosida olib borilmogi lozim. Bo'lar quyilardan iborat:

- sinf, guruhtarbiyaviysoatiningmazmuninianiqlash;
- sinf, guruhxonasinijihozlashishlarinitashkiletish;
- sinf, guruh, tarbiyaviysoatlariturkuminirejalashtirish.

Hozirgi kunda ko'p yillik pedagogik izlanishlar va mazkur soha mutaxassislarining ilg'or ish tajribalari asosida ish kurish, usib kelayotgan yosh avlodni hayotgato'g'ri yo'naltirish bugungi kunning dolzarb masalalardan biridir, zero, ularga maqsadli ta'sir kursatish, eng avvalo, sinf, guruh tarbiyaviy soatlari mazmunini aniqlash va puxta rejalashtirish, ya'ni mavzularni fasllarga karab, bayram, tarixiy sana va voqealar, tinchlik, dustlik, mehnat, oila, baxt, kasb tanlash, tabiatni sevishtirish, vatanparvarlik, ajdodlarimiz merosi, milliy va umuminsoniy kadriyatlarimiz singari tarbiyaviy soatlar bo'yicha tasniflash (klassifikatsiyalash) katta muvaffakiyatning garovi ekanligini kursatmokda.

Bunda quyi yo'nalishlarga e'tibor qaratilmogi lozim:

- "Inson va insoniy munosabatlar". Bunda milliy insoniy kadriyatlar, munosabatlar, jonajon maktabi, akademik litsey, kolleji o'qituvchilariga, uz otasini, qarindosh-urug'i, dustlari va boshqa kishilarga, ona-Vatan boyliklariga munosabat, yurish-turish madaniyati, muomalasi, rostguylik, halollik, mehnatga ongli munosabatda bo'lish, vatanparvarlik, sevgi, vafo, insoniylik, halqlar dustligi va birodarligi kabi etik qoidalar tartibiga e'tibor karatish;

- "Fan va turmush". Bunda dunyoni bilish, ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashni shakllantirish, fan, texnika yangiliklaridan xabardor bo'lib borish, kitobga munosabat, uni o'qish qoidasi, turmush madaniyati, oila etikasi kabi masalalarga e'tibor berish;

- "Guzallik olamida". Bunda guzallikning mohiyati, guzallikni

xunuklikdan farklash, etik va estetik karashlari, kiyinishda, turmushda, mehnatda, axloqda, muomala va nutq, madaniyatida, san'atning turli sohalarida, she'riyatda, zamonaviy ishlabchikarish kabi sohalarida guzallik belgilariga e'tibor berish;

- o'quvchilar bilan o'tkaziladigan darsdan tashqari mashg'ulotlar mavzusini aniqlaydi; ta'lim muassasasi faoliyati bilan tanishgandan keyin o'zining shaxsiy ish rejasini tuzadi. Mazkur ta'lim muassasasidagi tarbiyaviy ishlar tizimini o'rganish, sinf rahbari (yoki uning yordamchisi) sifatida tarbiyaviy, uslubiy va tadqiqiy ishlarni amalga oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi;

- o'ziga biriktyrilgan sinf o'quvchilari bilan suhbatlashadi, ularning shaxsiy hujjatlar yig'majildi bilan tanishadi, bolalarning odob-axloqi, xulq-atvori, o'qish sharoiti, ayrim fanlardan uzlashtirishi va sinf jamoasidagi uzaro munosabatlarni o'rganadi; psixologiya va maktab gigienasidan berilgan topshiriklarni bajarish uchun hujjatlar to'playdi;

- amaliyotchi uz sinfida o'tkazilayotgan turli xil tarbiyaviy tadbirlarni kuzatadi va tahlil qiladi. Talabalar pedagogik amaliyotning keyingi xaftalarida shaxsiy ish rejasida kuzda tutilgan darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshiradilar.

- Talabalar pedagogik amaliyotda tarbiyaviy ishlarni o'rganish, tashkil etish va o'tkazish dasturida belgilangan ishlarning barcha turlarini bajaradi. Har bir talaba tarbiyaviy tadbirga puxta tayyorgarlik kuradi va uning ishlanmasini (rejasi va matnini) mashg'uloto'tkazilishidan 3 kun oldin sinf rahbari va pedagogika kafedراسi yurikchi-o'qituvchisiga kursatib tasdiklatadi. Talaba amaliyot jarayonida o'zini bilimdon va madaniyatli mutaxassis sifatida, namoyon qilishi, tashkilotchilik, intizomlilik, mehnatsevarlik, xushmuomalalik fazilatlariga ega ekanligini kursatishi lozim.

- Talaba bitta tarbiyaviy tadbirni sinov tarikasida rejalashtiradi va o'tkazadi. Tadbir rejasi va matni pedagogika kafedراسi yo'riqchi-o'qituvchisi tomonidan albatta tasdiklangan bo'lishi va butun guruh, talabalari va pedagogik jamoa ishtirokida muhokama qilingan bo'lishi kerak. Aks holda o'tkazilgan tarbiyaviy tadbir sinovdan utdi deb hisoblanmaydi.

3. Tarbiyaviy ishlarsamaradorligini ta'minlashda ongli intizomning ustuvor o'rni

Jamiyat ijtimoiy hayotida muhim urinish tutuvchi ijtimoiy-xuquqiy me'yorlar esa davlat tomonidan qabul qilinib, tegishli konun aktlari asosida tartibga solinadi. Ijtimoiy-axloqiy me'rlarga amal qilishda ixtiyoriylik tamoyilining o'stunligi kuzga tashlansa, ijtimoiy-xuquqiy me'rlarga amal qilish majburiylik xususiyatiga egadir. Intizom ijtimoiy-axloqiy va xuquqiy me'rlarga nisbatan ongli yondashuv, ularga tula amal qilish demakdir. Boshqacha talin etiladigan bulsa, intizom-shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-xuquqiy me'rlari talablari asosida tashkil etilish kursatkichi sanaladi. Ongli intizom tushunchasi esa shaxs faoliyatining ijtimoiy-axloqiy hamda ijtimoiy-xuquqiy me'yorlar talablari asosida akliy kuvvatga tayangan holda tashkil etilish kursatkichidir. Ongli intizom tarbiyasi o'quvchilar tomonidan intizomning mohiyati, uning ijtimoiy jamiyat hamda shaxs hayotida tutgan o'rini to'g'ri baholash, shuningdek, ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-xuquqiy me'yorlar talablariga ongli munosabatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. O'quvchilar urtasida ongli intizom tarbiyasini tashkil etish jarayonida quyi vazifalar amalga oshiriladi:

1. Ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-xuquqiy me'yorlar mohiyatini o'quvchilar ongiga singdirish, ongli intizom tushunchasini karor toptirish. Uquvchilartomonidanijtimoiyburchmohiyatininguzlashtirilishigaerishish.
2. Uquvchilarda ijtimoiy burchni ado etish jarayonida ongli va ixtiyoriy faoliyatini tashkil etish borasidagi kunikma va malakalarni shakllantirish.
3. O'quvchilarda kundalik hayotiy rejim asosida faoliyatni tashkil etib kunikmasini xosil qilish.
4. O'quvchilarda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish (mehnat va dam olish faoliyati, akliy va jismoniy mehnat faoliyati urtasida uzaro mutanosiblikning karor topishiga erishish) kunikma va malakalarini xosil qilishga erishish.
5. O'quvchilarda ta'lim muassasasi ichki tartibi kridalariga buysunish

xissini shakllantirish.

6. Intizomsizlikning oldini olgan holda intizomsizlikka karshi kurashishga yo‘naltirilgan fa‘liyatini yo‘lga kuyish va boshqalar.

7. Ta‘lim muassasalarining muhim vazifalaridan biri yosh avlodni ongli intizom ruxida tarbiyalashdir.

Ta‘lim muassasalarida urnatilgan intizom ta‘lim muassasalari jamoasini jipslashtirish, ta‘lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mu‘tadil kechishini ta‘minlaydi. Intizom o‘quvchilardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o‘quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli o‘quvchilar organlari, uning a‘zolari talablarini to‘g‘ri talkin etish va ularning bajarilishini talab etadi. Uquv yurtida karor topgan ongli intizom o‘quvchilar faolligi va tashabbuskorligining usishiga yordam beradi. Shuningdek, ongli intizom o‘quvchilarning o‘qish va mehnat faoliyatiga ongli munosabatda bo‘lish, o‘quv yurti ichki tartib intizomiga buysunish, jamoa tomo-nidan topshirilgan topshirikni bajarishga vijdonan yondashgan holda xulq-" atvor me'yorlariga katiy rioya etish zarurligini tushunib olishlari va ularga uz ixtiyorlari bilan itoat etish kunikmalarining xosil bo‘lishiga sharoit yaratadi. Ta‘lim muassasalari o‘quvchilarida intizomlilik xislatining xosil bo‘lishi uchun ta‘lim-tarbiya ishlarining sifatini yaxshilash, ularning samaradorligini oshrishga imkon beradi.

Ongli intizom jamoa yordamida olib borilgan tarbiyaviy ishlarning natijasigina bo‘lib kolmay, ayni vaqtda, tarbiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Intizom kursatkichi kanchalik yuksak darajaga kutarilsa, uning tarbiya vositasi sifatidagi ta’siri shuncha ortib boradi. Intizomli jamoa uz a‘zolarini ichki tartibga rioya qilishga, muayyan xulq me'yorlariga amal qilishga, o‘qituvchilar topshiriklarini bajarishga, uz tengdoshlariga namuna kursatlshga, ijtimoiy burchni anglashga urgatadi. Bunday jamoa o‘quvchi noto‘g‘ri xa-rakat kilsa, uning xatosi kursatiladi, natijada o‘quvchi tomonidan uz xatosini anglashi, to‘g‘rilashga bo‘lgan urinish yuzaga keladi. O‘quvchi va jamoa urtasida ongli intizomni karor toptirish ikki tomonlama ta’sir kuchiga egadir. O‘quvchi jamoa doirasida jamoaning salbiy xususiyatlarini yo‘qotish uchun kurashadi, jamoa esa o‘quvchidagi mavjud

nuksonlarni bartaraf etishga uz ulushini kushadi.

Intizom o'quv ishlariga goyat katta ta'sir kursatadi. O'qituvchilarning topshiriklarini, jamoa karorlarini bajarish, mashg'ulotlarga kechikmasdan yetib kelish hamda sababsiz birona ham darsni koldirmaslik, darsda tartib saklash, uy vazifalarini uz vaqtida baja-rish kabi holatlar ta'lim jarayonining muvaffakiyatini, shuningdek, o'quvchilarning chukur bilim olishlari uchun imkon yaratadi. Shunday ekan, qaysiki o'quv gortida o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi intizom qoidalariga kattik rioya kilsa, usha o'quv yurtida uzlashtirish yukori darajada bo'ladi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda yuksak natijalar kulga kiritiladi.

O'quvchilarning ongli intizomini karor toptirishda kundalik hayotiy rejim hamda unga kat'iy amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Uat'iy dars jadvali, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni uyushtirish va ularni o'tkazish, kundalik faoliyatni aniq rejalashtirish o'quvchining shaxsiy hayotini muayyan tartibga solishga xizmat qiladi. O'quvchilarning kundalik hayotiy rejimini ishlab chikishda maktab va tashqari ta'lim muassasalari muayyan urin egallashi lozim. Ular orasida nomuvofiklik bulmasligi kerak. Umumiy urta ta'lim maktablari tarbiyavii tadbirlarni rejalashtirayotganda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tadbirlar rejasini, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari esa umumiy urta ta'lim maktablarining tadbirlar rejasi mazmunini inobatga olishi lozim. Shuningdek, ular o'quvtarbiyaviy tadbirlarni birgalikda o'tkazishlari yanada maqsadga muvofik bo'ladi. O'quvchilarni kundalik rejimini uz tashabbuslari bilan to'zish va bajarishga urgatish muhimdir. U o'zining kundalik rejimini maktab va maktabdan tashqari muassasalar ish rejasi bilan muvofiklashtirishga erishish maqsadga muvofikdir. Kundalik rejimni to'zish, unga rioya qilish, faoliyat turlarini, ish xajmini, dam olish, ovkatlanish, uxlash va , gigiena talablariga amal qilish kabilarga ajratiladigan vaqtni belgilash shartini ota-onalr va o'qituvchilar ularga yordamlashishlari yaxshi natijalar beradi.

Kundalik rejimga amal qilish faqat organizmning fiziologik kuvvatiga ijobiy ta'sir kursatib kolmay, balki ish uchun zarur tartibni yuzaga keltiradi, uning bajarilishi-ni yengillashtiradi, rejimga, intizom talablariga ijobiy munosabatni

shakllantiradi.

Ongli intizom tuygusini o'quvchilarda shakllantirish quyi mazmundagi faoliyatni tashkil etish asosida kechadi:

a) maqsadga muvofik talablarning kuyilishi hamda ularning o'quvchilar tomonidan bajarilishini uzluksiz, doimiy nazorat kilib borish;

b) ijtimoiy-axloqiy va ijtimoiy-xuquqiy me'yorlar mohiyatini tushuntirish;

v) ongli intizom mezonlaridan biri bo'lgan intizomli xulq, harakter va iroda sifatlarini xosil qilish maqsadida mashk, kildirish va urgatish;

g) rag'batlantirish va jazolash. Ragbatlantirish - o'quvchining namunali xulqi uchun boshqalarga ibrat kilib kursatish, faxriy yorliklar bilan takdimlash, devoriy gazetada ushbu o'quvchi to'g'risida kichik ma'lumotnoma berish, uning suratini maxsus doskaga kuyish, ota-onasining nomiga tashakkurnoma yuborish va boshqalar. Jazolash - o'quvchi (talaba) ning xatti-harakati va faoliyatini jamoa muhokamasiga kuyish kabi holat asosida tashkil etiladi.

4/ Tarbiyaviyishlardaijtimoiy tarbiyaning muhimligi

Ijtimoiy tarbiyaning ijtimoiy g'oyasi - ijtimoiylashuvni ijtimoiy tarbiya konteksti va ijtimoiy tarbiyani ijtimoiylashuv tarkibi sifatida o'rganadi. Olingan bilimlar ularning tarbiya solohiyatlaridan foydalanish, ijtimoiylashuv jarayonida inson rivojiga ta'sir etish mumkin bo'lgan ijobiy ta'sirlarni kuchaytirish va salbiy ta'sirni kamaytirishning usullari va yo'llarini izlab topish imkonini beradi.

Ijtimoiylashuv jarayonida bola jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy maqom, ijtimoiy xulq atvorning me'yor va qoidalari haqidagi bilimlar, tajribalarni o'zlashtirib boradi.

Darhaqiqat, ijtimoiy tarbiyaning maqsadi insonni ijobiy rivojlanishga qaratilgan sharoitlar yaratish jarayoniga yo'naltirishdir.

Bu sharoitlar individual va guruhviy sub'ektlarning uchta ta o'zaro bog'liq va shu paytning o'zida mazmuni, shakli, usuli jihatidan nisbatan mustaqil bo'lgan jarayonlar: (bolalar, o'smirlar, o'spirinlar)ni qamrab oladi. Ularning ijtimoiy

tajribasini tashkil qilish, ularga individual yordam ko'rsatishning o'zaro munosabati jarayonida yaratiladi. Guruh (jamoal)larda ijtimoiy tajribani tashkil qilish esa ularning hayotiy faoliyatini yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. Bunda guruh a'zolarining o'zaro munosabatlarini tashkil qilish, guruhdagi faoliyatni rag'batlantirish va norasmiy mikroguruhlarga ta'sir etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Individual yordam insonga muammolarni hal qilishda ko'maklashish, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirish, uning jamiyatdagi mavqei, o'rnini yuksaltirishda namoyon bo'ladi.

Individual yordam - boshqa insonlarning ehtiyojlarini qondirishga zarur bo'lgan bilim, malakalarni o'zlashtirishda insonga ongli yordam berish, insonning o'z qadriyatlarini anglashi, o'z-o'zini anglashini rivojlantirish, oila, guruh, jamiyatga mansubligi hissini rivojlantirishdir.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki, ijtimoiy tajriba, ta'lim va individual yordamning usul, shakl, mazmuni, harakter, jadalligi bevosita tarbiyalanuvchilarning yoshi, jinsi, qaysi kasb egasi ekanligi, ularning ijtimoiy madaniy mansubligiga ham bog'liq. Bu jihatlar turli ta'lim muassasalari va tashkilotlarda farqlanadi. Masalan, pedagogik, texnikaviy, tibbiy, huquqiy iqtisodiy kabi. Ijtimoiy tarbiya jarayonidagi o'zaro munosabat esa uning sub'ektlari orasidagi axborot, faoliyat usullari, qadriyatlar almashuvidir.

Umuman olganda o'zaro munosabat tarbiyachilar va tarbiyalanuvchilarning birgalikdagi faoliyati bo'lib uning mazmuni, harakteri tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgandir.

Ijtimoiylashuv o'zining maqsad va vazifalarini amalga oshirishda quyidagi tadqiqot metodlaridan keng ko'lamda foydalanadi:

- umummantiqiy metodlar (analiz, sintez, umumlashtirish, qiyoslash, modellashtirish, loyihalash);
- umumpedagogik metodlar (kuzatish, suhbat; tajriba; manbalarni o'rganish; qayta ishlash, umumlashtirish);
- xususiy pedagogik - psixologik metodlar (individual va guruh

o'rganish, xurmatlash, tushuntirish, ijobiy tomonlarga tayanish, ijtimoiy fikrlarni hisobga olish, diagnostiklash, prognostikalash, ekspert xulosalarini hisobga olish);

- tarixiy metodlar tarixiy qiyoslash, genetika, strukturaviy (alohida belgilar, shartli guruhlar) tarixiy manbalarni o'rganish;

- sotsiologikmetodlar (anketa, surovnomma, intervyuolish, sotsiometrik, biografik, monitoring, test topshiriqlari, modellashtirish);

- matematik – statistik (tahlil, natijalarni qayd etish tekshirish).

Jamiyat va shaxs - ijtimoiy falsafaning asosiy muammosi, hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda shaxsning rivojlanishi, uning jamiyatdagi bog'liqligi va jamiyatning insonlarga bog'liqlik masalasidir.

Hozirgi zamon sharoitida bizning mamlakatda ijtimoiy jamiyatdagi bo'layotgan o'zgarishlarni aks ettiradi, yangi siyosiy iqtisodiy, oilaviy, milliy va diniy munosabatlar shular jumlasidandir (yangicha fikrlash, tushuncha). Hozirgi zamon oilasi, undagi tinchlik, maktab va ta'lim yoshlar va jamiyat, shahar va tabiat, bozor va byudjet, milliy munosabatlar yangicha fikrlash va tushuncha hosil qilishni taqozo etadi. Chunki bu muammolar markazida shaxs, inson taqdiri turadi ijtimoiy iqtisodiy, madaniy va ta'limiy muammolarning o'zaro mutanosibligi hisoblanadi.

Shunday qilib hozirgi zamon sharoitida inson va tabiat deb atalmish ijtimoiy-falsafiy muammo juda muhim bo'lib turibdi. Ijtimoiy pedagogika o'zgarayotgan muhitning shaxsni shakllanishiga ta'sirini, yangi jamiyatda o'sib kelayotgan avlodga ta'lim berish ijtimoiy muammosi qanday xal qilinayotganini tahlil qiladi.

Ijtimoiy pedagog amaliyoti bolaga (o'smirlarga) jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muvozanatni saqlashga yangi munosabatlarni yaratishga yo'naltirilgan.

Ijtimoiy pedagogika o'z oldiga qanday asosiy maqsadlarni qo'yayotganini yuqoridagi fikrlardan bilib olsa bo'ladi. Shuning uchun ijtimoiy pedagogika ijtimoiy falsafa singari boshqa fanlar: psixologiya, fiziologiya, anatomiya, mantiq, tibbiyot, iqtisodiyot bilan uzviy aloqada bo'lmay turib faoliyat yurita olmaydi.

Ijtimoiylashuv vazifalari 3 guruhga bo'lingan:

Birinchi (nazariy – amaliy) guruh - ijtimoiy pedagogika faoliyatini tadqiq etish bilan bog‘liq sotsium rivojlanishi qonuniyatlari, undagi munosabatlar, sub’ektlar va institutlarning ijtimoiy ishlari; ijtimoiy pedagogik faoliyatining turli ko‘rinishlar va tiplarda, ular tahlilining turlicha darajalarda ziddiyatlarni izlab topish, ularni xal etish tendensiyalarini aniqlash; ijtimoiy sohadagi mutaxassis faoliyatining prinsiplari, mazmuni, usullari metodlari va shakllarini ishlab chiqish; ijtimoiy institutlarning yuzaga keltirishning tashkiliy asoslari; faoliyat ko‘rsatish, chet mamlakatlar hodimlari, tashkilotlari va institutlarini ijtimoiy pedagogik faoliyatini tahlil etish va tajribalarini baholash bilan bog‘liqdir.

2. Ikkinchi guruh - vazifalari hususiy (shaxsiy) metodologik, nazariy va ilmiy metodik asosini shakllantirish maqsadiga ega; ijtimoiy-pedagogik ilmiy yo‘nalish mazmunini tanlab olish, ilmiy bilimlar sohasi sifatida ijtimoiy pedagogikani mantiqiy, ilmiy fanni jamlash.

3. Uchinchi guruh - vazifalari ijtimoiy sohada kadrlarni tayyorlash uchun ta’lim kopleksini nazariy asosi bilan ya’ni ijtimoiy xodimlar, ijtimoiy pedagog, ijtimoiy yuristlar tayyorlash bilan bog‘liq. Bu ijtimoiy pedagogikaning uchunchi sifat ko‘rsatkichi bilan belgilanadi. Ijtimoiy pedagogika boshqa gumanitar fanlar va ilmiy - yo‘nalishlar bilan mustahkam bog‘liq. Jumladan, u ijtimoiy falsafa, ijtimoiy siyosatshunoslik, ijtimoiy psixologik, ijtimoiy huquq, ijtimoiy informatika va statistika; shuningdek boshqarish nazariyasi, ijtimoiy meditsina va boshqalar bilan bog‘liqligi ham mavjud. Ijtimoiy pedagogika ma’lum darajada (o‘z tabiatiga ko‘ra) fanlararo ilmiy fan hisoblanadi, fanda ham va jamiyatda ham o‘zining ochiqcha harakteri bilan ajralib turadi.

Amaliy faoliyat sohasi sifatida ijtimoiylashuv u yoki bu sotsium bilan o‘zaro ta’sir holatidagi insonga yo‘naltirilgan. Bunday o‘zaro ta’sir ishtirokchilarini shartli tarzda 3 ta katta: ijtimoiy - istiqbolli; ijtimoiy - stabil; ijtimoiy - muammoli guruhlarga bo‘lish mumkin. Insonlarni u yoki bu guruhga ajratish mezonlari sifatida ularning qimmatli mo‘ljallar va hayotiy maqsadlariga qaratilgan yo‘nalishlar hamda ularning jamiyat tomonidan tan olingan ijtimoiy boyliklariga mos kelishi kerak.

XULOSALAR

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib va tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

1. Tarbiyasiz ma'naviyat poydevorsiz binoga uxshab omonatlik kasb etadiki, bu holni sharhlab, izohlab utirishning xojati yo'q. Shu boisdan-da, ta'lim-tarbiya jarayoniga barcha davlatda kuchli ehtiyoj sezilgan. Ma'naviy barkamol, komil inson tarbiyasi hozirgi kunning eng muhim, dolzarb masalalaridan biridir.

2. Tarbiyaviy maqsad – aniq o'lchamli ishlarga oid vazifalarni belgilab beradi. Har bir ishda asosiy g'oya, yo'nalish (aqliy, jismoniy, mehnat tarbiyasi va boshqalar) ajralib turadi. Tarbiyaviy maqsadni belgilash bosqichida pedagogning vazifasi professor-o'qituvchilarning murabbiylik faoliyatini asosiy maqsadga yo'naltirish, tarbiyalanuvchilarning muayyan ta'sir tizimini qabul qilishga tayyorgarlik darajasiga tashxis qo'yishdan iboratdir.

3. Barkamol shaxsni tarbiyalash ijtimoiy tarbiyaning muhim qismlaridan biri sifatida talaba-yoshlar ruhiy olamining shakllanishida, hayotiy pozitsiyalarning mustahkalanishida, ularning ijtimoiy faolligining o'sishi va ixtisoslik bilimlari hamda umumnazariy tayyorgarligining oshishida asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

4. Shaxs ma'naviyati – bu har bir shaxsga tegishli bo'lib, uning ichki ruhiy holati, hatti-harakatlari munosabatlari boshqa qirralarini o'z ichiga oladi. Mintaqaviy ma'naviyat esa – muayyan geografik mintaqa millatlariga xos, ular uchun umumiy bo'lgan ma'naviy boyliklardir. Masalan, O'rta Osiyo xalqlarining

5. Ta'lim muassasalarida urnatilgan intizom ta'lim muassasalari jamoasini jipslashtirish, ta'lim muassasasi ichki hayoti va faoliyatining mu'tadil kechishini ta'minlaydi. Intizom o'quvchilardan hamjihatlik asosida faoliyat olib borish, o'quv yurti manfaati uchun birgalikda kurashish, rahbariyat hamda vakolatli o'quvchilar organlari, uning a'zolari talablarini to'g'ri talkin etish va ularning bajarilishini talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 20-29-b.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” //Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 1997. – 31-61-b.
3. «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir». Prezident I.A.Karimovning 2009 yilning yakunlari va 2010 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi, 2010 yil 29 yanvar.
4. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma‘naviyat”, 2008. -176 b.
5. Abdullaev A. Ma‘naviyat va iqtisod, tafakkur. Toshkent,: «Ma‘naviyat», 1999.
6. Begmatov S. O‘zbekistonhalqma‘naviyati. (o‘quvkullanma). Toshkent, 1995.
7. Vafoev O. Ma‘naviyattarakkiyotomili. // Mulokot, 1995, 2-son.
8. Juraev A. Tarbiyaviy darslarni utish.Sinf raxbarlari uchun kulanma, Toshkent,: «O‘qituvchi», 1994.
9. Maxkamov U. Shaxsnima‘naviyshakllantirish. Toshkent,: «O‘zbekistan», 1998.
10. MusurmonovaO.Ma‘naviykadryatlar - soglomavlodnitarbiyalashvositasi. Toshkent, 1995.
11. Xujamurotov N. Ma‘naviykadryatlarvamilliyuzliknianglash.Toshkent, 1991.
12. O‘quvchima‘naviyatinishakllantirish. Toshkent,: «Shark», 2000.